3. Ijtimoiy, madaniy va psixologik tahlil imkoniyatlari. Tadqiqot davomida Golding asarlaridagi ijtimoiy va madaniy kontekstning ta'sirini o'rganish, shuningdek, qahramonlar psixologiyasini chuqurroq tahlil qilish mumkin.

4. Badiiy uslub va ramzlar. Golding badiiy uslubi, simvolizmi va ramzlaridan foydalanishi o'z asarlarining yashirin ma'nolarini ochishga yordam beradi. Ushbu jihat o'quvchilarni qiziqtirishi va mulohazalariga sabab bo'lishi mumkin.

Ushbu tadqiqotdan kelib chiqqan holda, quyidagi takliflar berilishi mumkin:

1. Qo'shimcha tadqiqotlar. Golding asarlarini yanada chuqurroq tahlil qilish uchun boshqa adabiyotshunoslar, psixologlar va tarixchilar bilan hamkorlikda multidissiplinar tadqiqotlar o'tkazish taklif etiladi.

2. O'qituvchilar va o'quvchilarga mo'ljallangan dasturlar. Golding asarlarini o'rgatish uchun ta'lim dasturlari tayyorlash, badiiy adabiyotda urush va insoniyat masalalariga e'tibor qaratishni oshirish.

3. Tadqiqotlar natijalarini kengaytirish. Golding ijodi va uning zamondoshlarini taqqoslash orqali urush ta'sirlari va ijtimoiy masalalarning adabiyotdagi ifodalarini o'rganish.

4. Badiiy asarlarni keng tarqatish. Goldingning asarlarini keng targ'ib qilish, adabiy tadqiqotlar va munozaralar uchun imkoniyatlar yaratish maqsadida seminarlar va konferensiyalar tashkil etish.

Uilyam Golding ijodi bugungi kunda bizga insoniyat tabiatining murakkabligini, urushning halokatli ta'sirlarini va shaxsiy tajribalarimizni o'rganishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotlar jarayoni davomida yana ko'plab yangi va qiziqarli natijalar haqida mulohaza yuritish va yanada chuqurroq tahlil qilish imkoniyatlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Brown, A. (2019). The Inner Struggles of William Golding: An Exploration of Psychological Themes in Lord of the Flies. Journal of Modern Literature.

(2). Golding, W. (1954). Lord of the Flies. Faber & Faber.

(3). Jones, M. (2020). Cultural Contexts in Golding's Work: Societal Reflections in Post-War Literature. Contemporary Literary Criticism.

(4). Salvatore, T. (2015). War and Memory in the Works of William Golding: A Sociological Perspective. Modern Fiction Studies.

(5). Smith, J. (2021). Symbolism and Style in Golding's Works: A Detailed Analysis. Literary Analysis Journal.

(6). Williams, R. (2018). The Impact of War on Humanity: Golding's Literary Examination. International Journal of Literature and Culture.

Kenjayeva Umida (UrDU o'qituvchisi), Oydinova Parizod (UrDU o'qituvchisi)

ADEKVAT TOPISHMOQLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turkiy xalqlar og'zaki ijodiga tegishli topishmoqlarni qiyosiy-tipologik metod orqali ularning janri, sujeti va obrazi boshqa xalqlar badiiy ijodi materiallari bilan solishtirilib taqqoslangan.*

Kalit so'lar: *adabiyot, qiyosiy-tipologik metod, folklor, umumturkiy madaniyat, adabiy janr, mifologiya va an'ana va adabiy parallelism.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЗАГАДОК ТЮРКСКИХ НАРОДОВ

Аннотация. *В этой статье с использованием сравнительно-типологического метода сравниваются загадки, принадлежащие к устному творчеству тюркских народов, анализируется их* жанр, сюжет и образы *в контексте художественных материалов других народов.*

Ключевые слова: *литература, сравнительно-типологический метод, фольклор, общетюркская культура, литературный жанр, мифология и традиция, литературный параллелизм.*

ADEQUATE RIDDLES

Annotation. *This article compares and contrasts riddles belonging to the oral tradition of Turkic peoples using comparative-typological methods, examining their genre, plot, and characteristics in relation to the artistic materials of other nations.*

Keywords: *literature, comparative-typological method, folklore, common Turkic culture, literary genre, mythology and tradition, and literary parallelism.*

Kirish (Introduction). Turkiy xalqlarning og'zaki ijodi, xususan, topishmoqlar janri, ularning qadimiy madaniy qatlamlari, tafakkuri va estetik qarashlarini o'zida mujassam etgan muhim folklor janrlaridan biridir. Ushbu janr xalqning dunyoqarashi, tabiatga, ijtimoiy hayotga munosabati hamda badiiy tafakkuri-

ning in'ikosidir. Xalq og‘zaki ijodining tarkibiy qismi bo‘lgan topishmoqlar o‘zbek, turkman, qoraqalpoq kabi qardosh xalqlar ijodida keng tarqalgan va o‘ziga xos janr xususiyatlariga ega.

Turkiy xalqlarning tarixiy taraqqiyoti, umumiy til va madaniy merosga egaligi ularning og‘zaki ijodida ham mushtarakliklar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Ayniqsa, topishmoqlar orqali bu mushtaraklik yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, har bir xalqning milliy xususiyatlari asosida shakllangan obrazlar, metaforalar va ifoda vositalari orqali ushbu janrda differensial jarayon ham kuzatiladi.

Ushbu maqolada turkiy xalqlarga xos topishmoqlarning adekvat shaklda mavjudligi, ya’ni, sujet, obraz va metaforik struktura jihatidan o‘zaro o‘xshashligi qiyosiy-tipologik metod asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, boshqa xalqlar (masalan, rus, tojik, yoqut) folkloridagi mazmunan yaqin topishmoqlar ham solishtirma tahlilga tortiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi turkiy xalqlar tafakkuridagi mushtaraklikni, tarixiy-madaniy umumiylikni badiiy janr orqali ochib berishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Turkiy xalqlar og‘zaki ijodining teran tomirlari juda qadimiy asoslarga ega. Bu xalqlar folklorini qiyosiy-tipologik tarzda o‘rganish xalq ijodiyotiga xos janrlarning shakllanishi va milliy asoslarini o‘rganishda muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Darvoqe, “...folklor asarlarini ilmiy tadqiq etishning keng tarqalgan va samarali metodlaridan biri “qiyosiy-tipologik metod” hisoblanadi. “Qiyoslash” deganda muayyan folklor janri, epik sujet yoki obrazni boshqa xalqlar og‘zaki badiiy ijodi materiallari bilan solishtirib, taqqoslab o‘rganish asosida o‘zaro o‘xshash hamda farqli xususiyatlarni aniqlash nazarda tutiladi”.[1]

O‘zbek folkloriga oid asosiy ilmiy manbalardan biri hisoblangan G‘.Abdurahmonov va Sh.Shukurovning “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi” asarida til taraqqiyoti va tarixiy ildizlar haqida muhim ma’lumotlar berilgan bo‘lib, turkiy tillarning mushtarak xususiyatlarini o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qiladi.[2]

“Qaraqalpaq folklori” va “Edigenim edi yildiz” nomli to‘plamlar qoraqalpoq va turkman xalqlarining topishmoq janridagi namunalarini ilmiy asosda tasniflashga imkon beradi. Ushbu to‘plamlardagi namunalar maqolada adekvat topishmoqlarni aniqlashda asosiy material sifatida foydalanilgan.

Z.Husainovaning “Topishmoq terminlari” nomli maqolasi topishmoqlarning janriy xususiyatlari, ularning tuzilishi, semantik va stilistik jihatlari bo‘yicha dastlabki ilmiy qarashlarni beradi.[3] Shu bilan birga, D.Bekirovning “Tatar folklori” hamda A.Sofiyevning “Таджикские народние загадки” kabi manbalarda boshqa millatlarning og‘zaki ijodi misolida umumiy mantiqiy struktura va metaforik ifodaning mavjudligi ko‘rsatib o‘tilgan.[4]

V.M.Jirmunskiyning qayd qilishicha, xalq ijodiyotiga tegishli har qanday asar uni ijod qilgan xalqning muayyan sharoitlarda vujudga kelgan sotsial tuzimi, tarixi, ruhiyati, ijtimoiy ideali va badiiy tafakkurining milliy xususiyatlari hamda o‘ziga xos milliy qiyofasini namoyon qiladi.[5]

Ilmiy tadqiqotning qiyoslash usuli bu milliy o‘ziga xoslikni, tarixiy jihatdan asoslangan holda chuqurroq aniqlab berish imkoniyatini ro‘yobga chiqaradi. Topishmoqlar xalqning ommaviy, qadimiy va o‘lmas janridir. Hayot davom etar ekan, unda yuz bergan e’tiborga loyiq hodisalar mazkur janrda o‘z ifodasini topishda davom etadi.

Turkiy xalqlarning qadimgi umumiy tili va umumiy madaniyatini bir-biridan ajratib qarash mumkin emas. “Chunki XII–XIII asrlardagi qabila va urug‘ tillari faqat o‘zbek tili uchun emas, balki boshqa turkiy tillar (uyg‘ur, turkman, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq v.b.) uchun ham asos bo‘lgandir”.[6] Demak, XIII asrgacha umumiy til va umumiy madaniyatga ega bo‘lgan o‘zbek turkman va qoraqalpoq xalqlarining og‘zaki badiiy ijodida ham mushtaraklik bo‘lishi, tabiiy. Shu bilan birga, jamiyatning keyingi taraqqiyoti ularning og‘zaki ijodiyotiga o‘z ta'sirini o‘tqazmasdan qolmadi. Bu holat og‘zaki ijodiyot asarlari, xususan, topishmoq janrining ham millatlararo differensialashish jarayonini boshdan kechirishga olib keldi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur maqolada qiyosiy-tipologik metod asos qilib olingan. Turkiy xalqlarning (xususan, o‘zbek, turkman, qoraqalpoq) topishmoqlari o‘zaro taqqoslangan. Shu bilan birga, ba’zi boshqa xalqlarning folklor namunalariga ham tayanilgan (rus, tojik, yoqut folklori).

---

[1] Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. T., “Fan”, 2009, 154-bet.

[2] Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh. (1973). O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent, “O‘qituvchi”.

[3] Husainova, Z. (1960). Topishmoq terminlari. “O‘zbek tili va adabiyoti masalalari”, 3-son.

[4] Bekirov, D. (1975). Tatar folklori. Toshkent, “O‘qituvchi”; Sofiyev, A. (n.d.). Таджикские народние загадки (Tojik xalq topishmoqlari), 21-bet.

[5] Jirmunskiy V.M., Jo‘rayev M. (2009). Folklorshunoslik asoslari. Toshkent, “Fan”.

[6] Abdurahmonov F., Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. T., “O‘qituvchi”, 1973, 19-bet.

Tahlil uchun, asosan, quyidagi manbalar tanlangan:

- "Topishmoqlar" to'plami.
- "Edigenim edi yildiz" (turkman folklori).
- "Qoraqalpoq folklori" to'plami.
- Xorazm folklori namunasi va boshqalar.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Umumturkiy til va madaniyat, shuningdek, keyingi taraqqiyot xalq ijodiyotidagi mushtarakliklarni batamom o'zgartirmagani holda ularda, baribir, alohidaliklarning paydo bo'lishiga olib keldi. Buni topishmoqlar misolida yaqqol anglab olish mumkin.

Turkiy xalqlar folklorida yagona o'xshash hayot, umumiy turkiy til hukmron bo'lgan paytlarda yaratilgan topishmoqlar muayyan darajada ajralib turadi. Ularda yagona kompozitsiya, yagona metafora, yagona g'oya o'zini namoyon qilib turadi. Shu sababli biz ularni adekvat topishmoqlar deb nomladik. Qardosh turkiy xalqlar folklorida tarqalgan adekvat topishmoqlarning aksariyati mazkur xalqlarning qadimgi umumturkiy madaniyatiga borib bog'lanadi. Topishmoqlarning bu toifasi o'zlarining shakliy va mazmuniy ko'rinishi bilan alohida ajralib turadi. Ularning ayrimlaridagina ba'zi so'z va ifodalarning o'rni yoki shakli o'zgargan, xolos.

Bunday topishmoqlar ancha qadimiy bo'lib, ular negizida mifik tasavvurlar ham o'zini yaqqol namoyon qiladi:

Qo'lsiz, oyoqsiz gul soladi (Topishmoqlar. 20-bet).

Ayaksiz, elsiz-surat cheker (Edigenim edi yildiz. I kitob, 110-bet).

Qolsiz, ayaqsiz gul saladi (Qoraqalpoq folklori. III tom, 157-bet).

Deraza oynasiga sovuq natijasida gulga o'xshash qirovning o'tirishini ifodalovchi bu topishmoqda uchala xalqning tasavvuri ham bir xil. Qiziqarli topmoni shundaki, bu topishmoq rus folklorida ham adekvat tarzda uchraydi: Без рук, без нога, рисоват умеет (Лазутин С.Г. 1997).

Albatta, topishmoq mazmuniga qaraganda u oyna kashf etilgandan keyin yaratilgan. Biroq topishmoqda animistik dunyoqarashning izlari ham saqlanib qolgan.

Buni quyidagi namunalarda ham ko'rish mumkin:

Chopsa, chopilmas,
Kessa, kesilmas (Topishmoqlar. 26-bet).

Gəmsem-gəmulmez,
Chapsam-chapilmaz (Edigenim edi yildiz. I kitob, 113-bet).

Shapsa shabilmaydi,
Kesse kesilmeydi.
(Qaraqalpaq folklori. III tom, 42-bet)

Turkiy xalqlarning qadimgi hayoti baliqchilik, chorvachilik, ovchilik bilan bog'langan. Shu sababdan adekvat topishmoqlarning aksariyati o'sha mavzu atrofiga jamlanadi:

Boshi bor-u sochi yo'q,
Ko'zi bor-u qoshi yo'q. (Topishmoqlar. 63-bet)

Kellesi bar, sachi yok,
Gəzleri bar, gashi yok. (Edigenim edi yildiz. II kitob, 56-bet)

Basi barda shashi joq,
Kəzi barda qasi joq. (Qoraqalpoq folklori. III tom, 173-bet)

Topishmoqlarda asosiy e'tibor bosh va soch, ko'z va qoshga qaratilgan. Baliqqa xos bo'lgan asosiy qiyofa uchala xalq tafakkurida ham bir xil aks etgan. Ma'lumki, baliqchilik bo'lgan joyda ko'l, uning ichida esa qamish o'sishi, tabiiy. Bu o'simlik ham insoniyatning qadimiy yo'ldoshidir. Undan kishilar uy qurishda, ayrim jihozlar yasashda, baliq ovlashda keng foydalanishgan. Bu holat qamish haqida turli topishmoqlarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Bu topishmoqlarda ham shakliy va mazmuniy mushtaraklik yaqqol ko'zga tashlanib turadi:

Uzun terak,
Ichi kavak, (Topishmoqlar. 95-bet)

Uzin derek,
Ichi kəvek. (Edigenim edi yildiz. II kitob, 74-bet)

Uzin terek, ishi geo'ek. (Qoraqalpoq folklori. III tom, 94-bet)

Turkiy xalqlarda o'troq hayot boshlangandan keyin uy hayvonlari, parrandalar asrash, asta-sekin dehqonchilik madaniyati rivojlana borgan. Bu ijtimoiy turmush tarzi o'z navbatida topishmoqlarda ham o'z ifodasini topgan.

Parrandalardan eng ommaviylik qozonib, topishmoqlar mazmunidan ko‘p o‘rin egallagani xo‘rozdir. Ma'lumki, xo‘roz tovuqlar orasida alohida ajralib turadi va viqor bilan yuradi. Shu sababli darhol e'tiborni tortadi.

Turkiy xalqlar orasida uning tashqi ko‘rinishi asos qilib olingan quyidagi topishmoq juda mashhurlik qozongan:

Boshi taroq,
Dumi o‘roq. (Topishmoqlar. 67-bet)
Bashi darak,
Guyrugi өrak. (Edigenim edi yildiz. II kitob, 47-bet)
Basi taraq, quyrug‘i oraq. (Qoraqalpoq folklori. III tom, 75-bet)

Ushbu tasvirlarga aynan mos keladigan topishmoq Qrim tatarlari folklorida ham uchraydi:

Bashi tarak,
Q'uyrug‘i o‘rak.[3]

Xo‘rozlar haqida turkiy xalqlar folklorida juda ko‘p topishmoqlar mavjud. Biroq, biz keltirgan namuna tom ma'noda adekvatlik kasb etadi. Boshqalari mazmunan o‘xshasa-da shaklan farqlanadi. Biz keltirgan namunalar qadimiyroq vujudga kelgan bo‘lsa kerak.

Tovuq, xo‘roz, tovuq tuxumi haqidagi topishmoqlarning ko‘pligi ularning inson hayoti bilan uzviy bog‘liqligi va hamisha yonma-yon bo‘lishidir. Ayniqsa, tovuq tuxumi haqida yaratilgan jumboqlar yagona tasavvurga asoslanganligi bilan xarakterlidir:

Qoziqda qor turmas. (Topishmoqlar. 72-bet)
Gazik ustunde gar durmaz. (Edigenim edi yildiz. II kitob, 17-bet)
Qaziq basinda qar turmas. (Qoraqalpoq folklori. III tom, 75-bet)

Shu narsa qiziqki, turkiy xalqlardan uzoq hududda joylashgan shimol xalqlari folklorida tuxum haqida yaratilgan topishmoqlar ham mazmunan yuqorida keltirilgan namunalarga mos keladi:

На крюк повесит ни когда не повиснет.

Yoqutistonda yashovchi evenkllar orasida tarqalgan bu topishmoqda ham qoziq tushunchasi bor. Albatta biz keltirgan namuna topishmoqning ruscha tarjimasidir. Originalda esa bu jumboq turkiy namunalarga yanada yaqin bo‘lishi mumkin. Chunki yoqutlar ham turkiy xalqlarning uzoq ajdodi hisoblanadi. Shuni e’tiborga olganda, bu topishmoq umumturkiy xususiyat kasb etgan bo‘lishi mumkin.

Turkiy xalqlar o‘troqlasha borgandan so‘ng dehqonchilik mashg‘ulotlari ham hayotdan keng o‘rin olgan. Natijada turli poliz ekinlari haqida topishmoqlar yuzaga kelgan. Sabzi, piyoz haqida, ularga xos metaforalar tanlashda ham turkiy xalqlar fikrlashida umumiylik ruhi ustuvorlik qiladi: Sabzi haqida:

Yer tagida oltin qoziq. (Topishmoqlar. 100-bet)
Yer astinda altin gazik. (Edigenim edi yildiz. II kitob, 69-bet)
Jer astinda qatara qoziq. (Qoraqalpoq folklori. III tom, 90-bet)

Piyoz haqida:

Past-past bo‘yi bor,
Yetti qavat to‘ni bor. (Topishmoqlar. 101-bet).
Dolama dokuz doni bar,
Bir tobajak өzi bar. (Edigenim edi yildiz. II kitob, 68-bet)
Kishkene g‘ana boyi bar,
Qabat-qabat toni bar. (Qoraqalpoq folklori. III tom, 90-bet)

Sabzi va piyoz haqidagi topishmoqlarni qiyoslaganda shu narsa anglashiladiki, sabzi haqidagi jumboqlarda “qoziq”, rang piyoz to‘g‘risidagi topishmoqlarda bo‘y va to‘n tushunchalariga e’tibor qaratilgan. Chunki sabzining erga kirib turishi qoziqni, rangi esa oltinni esga soladi. Piyozning esa bo‘yi pastligi va to‘nining qavat-qavat ekanligi asosiy xususiyat bo‘lib gavdalanadi. Birinchi topishmoqda rang va shakl, ikkinchisida bo‘y va shakl jumboqlangan.

Qadimiy tasavvurlar faqat qardosh xalqlardagina emas, balki, qardosh bo‘lmagan xalqlar ijodida ham o‘zaro yaqinlik kasb etadi. Chunki “...tafakkurdagi umumiy qonuniyatlar tilda o‘z aksini topadi, sababi til va tafakkur bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Natijada kelib chiqish jihatidan turlicha bo‘lgan tillarda ham o‘zaro o‘xshash iboralar paydo bo‘ladi”.[4]

---

[3] Bekirov Dj. Tatar folklori. T., “O‘qituvchi”, 1975, 94-bet.
[4] Salomov G‘. Til va tarjima. T., “Fan”, 1966, 255-bet.

Sabzi haqida tojik folklorida yaratilgan topishmoqda ham tanlangan metafora turkiy xalqlarniki bilan bir xil:

Mexi zarrin-zeri zamin.

Yer tagida sariq mix. (So'fiyev A. Таджикские народие загадки. 21 с.)

Turkiy xalqlarda o'troq hayot boshlangandan keyingi yaratilgan topishmoqlarning aynan bir xilligiga sabab, ulardagi turmush tarzining deyarlik bir tarzda kechganligidir. Tandir, o'choq, qozon, olov kabi uy-xo'jalik asboblari haqida yaratilgan topishmoqlar bunga misol bo'la oladi. Bu asbob-uskunalar haqida tanlangan metaforalar o'zaro juda mos keladi:

Og'zi qora alomat,

Ichi qizil qiyomat. (Topishmoqlar. 129-bet)

Agzi gara alamat,

Ichi gizil kiyamat. (Edigenim edi tsildiz. II kitob, 20-bet)

Ao'zi toli ələmat,

Ishi qizil bələmat. (Qoraqalpoq folklori. III tom, 105-bet)

Tandirni o'z tarkibiga yashirgan ushbu topishmoqda metafora olovga nisbatan ishlatilgan. Uchala topishmoqda ham olovning rang belgisi "qizil" tarzda qo'llanilgan. O'zbek va turkman variantlarida qozonning tutundan qoraygan og'ziga ham alohida metafora tanlangan.

Qozon va olov haqidagi topishmoqlarda tanlangan metaforalar ham e'tiborni tortadi:

Qora sigir qarab turar,

Sariq sigir yalab turar. (Topishmoqlar. 131-bet)

Gara sigri garap dur,

Sari sigrim yalap dur. (Edigenim udi tsildiz. II kitob, 26-bet)

Qara siyrim qarab tur,

Qizil siyirim jalap tur. (Qoraqalpoq folklori. III tom, 95-bet)

Topishmoqlardagi "Qora sigir" –qozon, "qizil" va "sariq" sigirlar olovga nisbatan tanlangan metaforalardir. Turkman va o'zbek variantlarida olovga nisbatan "sariq" qoraqalpoq variantida "qizil" metaforasi tanlangan. Albatta, bu qiyoslashlardagi har ikkala rang ham o'zaro o'xshashdir.

Topishmoqlarning uchala variantida ham asosiy urg'uning, hal qiluvchi metaforaning sigir qiyofasiga borib bog'lanishida ham mantiqiy asos mavjud. Chunki sigir uy-ro'zg'or, oila ramzidir. U oilani boqadi. Shu narsa xarakterliki, oltoyliklar sigirni uy deb atar ekanlar. Demak, turkiy xalqlarda bu hayvonning ardoqlanishi bejiz emas. Bu uy hayvoni har uchala xalq hayotida hamisha hal qiluvchi rol o'ynab kelgan. Shu sababdan bo'lsa kerak, qozonning qoraligi, olovning sariqligini gavdalantirish uchun ataylab sigir obrazi tanlangan.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, qardosh xalqlar folklorida topishmoqlar faqatgina xalq tafakkurini emas, balki ushbu xalqlar uchun mushtarak bo'lgan tarixiy va madaniy taraqqiyotidan dalolat beruvchi muhim janr sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu qardosh xalqlar folkloridagi adekvat topsihmoqlarning o'zaro farqli va o'xshash jihatlarini tadqiq qilish orqali tafakkur umumiyligi va tarixiy negizlarni keng doirada anglash imkoni yaratiladi. Shu bois kelgusida bu janrni yanada kengroq qiyosiy-tahliliy tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (references):

(1). Jirmunskiy V., Jo'rayev M. (2009). Folklorshunoslik asoslari. Toshkent, "Fan".

(2). Abdurahmonov, F., Shukurov, Sh. (1973). «O'zbek tilining tarixiy grammatikasi». Tashkent, "Oqituvchi".

(3). Qoraqalpoq folklori. III tom, Nokis, 1978.

(4). Qoraqalpoq jumbaqlari. Nekis, "Qaraqalpaqstan", 1970.

(5). Husainova Z. Topishmoq terminlari. "O'zbek tili va adabiyoti masalalari", 1960, 3-son.

(6). Bekirov, Dj. (1975). Tatar folklori. Toshkent, "O'qituvchi".

(7). Salomov, G'. (1966). Til va tarjima. Toshkent, "Fan".

(8). Сафиев А. (n.d.). Таджикские народные загадки. 21 р.